

4-topshiriq. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering.

Chori	
Davron	
Jamila	

V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob o'tkaziladi.

–Siz nimalarga qiziqasiz ?

–Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish.

Hikoyani ifodali o'qib,erkin gapirib berishga tayyorlanib kelish.

12-mavzu: "Hunarning hidi qanaqa?"(Janni Rodari)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,she'rni ifodali o'qishni o'rgatish.

b)tarbiyaviy: o'quvchilarga kasb-hunarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish,kasb-hunar o'rganishga qiziqtirish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish.

c)rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,"Aqliy hujum" metodi, savol-javob, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma`naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.


Uyga berilgan vazifa – "Chorining qobiliyati " hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini qayta hikoyalab beradilar.

"Aqliy hujum" usuli.

- 1.Chori nima bilan shug`ullanar edi?
- 2.U nima uchun futbolga qiziqib qoldi?
- 3.Futbol bilan shug`ullanib yaxshi natijaga erishdimi?
- 4.Jamilaning qanday rejalari bor edi?
- 5.Chorining qo`shiq aytishi hay`at a`zolariga yoqdimi?

III.Yangi mavzu bayoni.

Bugungi mavzu e`lon qilinadi:"**Hunarning hidi qanaqa**" she`ri. She`r muallifi Janni Rodari haqida ma`lumot beriladi.



Janni Rodari -italiyalik buyuk yozuvchi.U ilk "Quvnoq she'rlar kitobi" bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan.Uning "Chipollinoning sarguzashtlari", "Telefonda aytilgan ertak", "Salom bolalar", "Jelsomino yolg`onchilar mamlakatida"va boshqa ko`plab asarlari o`zbek tilida nashr etilgan.

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Isi – hidi

Behuda – befoyda

"Hunarning hidi qanaqa" she'ri o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.


IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

- 1.She'r nima haqida yozilgan?
- 2.Shoir she'r orqali nima demoqchi ?
- 3.Ishyoqmasning hidi haqidagi fikringizni ayting.
- 4.She'rda nechta kasb-hunar egalari haqida aytilgan?
- 5.Siz o`zingizni bekorchi deb o`ylaysizmi? Qanday insonlarni bekorchi deymiz?

"Nomini top!" mashqi.

Berilgan rasmlar qaysi kasb-hunar egalarga tegishli ekanligini topadilar.



Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. Rasmdagi buyumlarni kimlar tayyorlashini yozing.



Kulol, novvoy, do`ppido`z, gilamdo`z.

2-topshiriq. Berilgan so`zlarga mos qo`shimchalarni aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.

soat

pichoq

gilam

-chilik

-soz


-do`z

1. Soatsoz soatni ta'mirladi.
2. Anvarning bobosi pichoqchilik bilan shug`ullangan.
3. Gilamdo`zlar chiroyli gilamlar to`qishadi.

3-topshiriq. Jadvalda kasb va hunar nomlari yashirilgan. Ularni toping va rangli qalamlar bilan bo`yang. Baliqchi,bo`yoqchi,qandolatchi,....

B	A	L	I	Q	Ch	I	B	T	G
A	Q	O	Sh	P	K	F	O'	D	S
D	N	M	Ch	Sh	O	F	Y	O	R
K	Q	R	I	J	M	Sh	O	K	U
Sh	D	E	H	Q	O	N	Q	T	V
U	S	T	A	X	Y	L	Ch	O	H
M	Z	O'	I	G'	Ch	G	I	R	N
Q	A	N	D	O	L	A	T	Ch	I

4-topshiriq. 1-ustundagi soʻzlarni 2-ustundagi maʼnodosh soʻzlar bilan bogʻlang.



V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob o'tkaziladi.

–Hunar o'rganish nima uchun kerak deb o'ylaysiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. She'rni yod oling.